



**O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASHINI  
RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARDAN  
FOYDALANISH**

**B. Suvankulov**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsent*

**Annotatsiya.** Dunyoga teran ko'z bilan qaraydigan barkamol insonni shakllantirish, uning natijasi, mahsuli sifatida mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, ma'naviyati yuksak shaxsni kamol toptirish, yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va ma'suliyatli vazifadir. Shu bois, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsining mustaqil fikrlash faoliyatini shakllantirib, muntazam rivojlanirib borish, "sub'yekt-sub'yekt" munosabatini amalda ta'minlash, natijada ularning ijodiy faolligi, izlanuvchanligi, irodaviy sifatlari, ishchanligi, e'tiqodini tarkib toptirish muhim ahamiyat kashb etadi.

Hozirda maktablarimizda olib boriladigan sinf-dars shaklidagi mashg`ulotlarda quyilgan talablar ham o'zgarib bormoqda. Darslarni qiziqarli uyuştirish uchun o'qituvchilar yangicha dars turlaridan, turli-tuman interfaol usul va vositalaridan keng foydalanib dars oldiga qo'yilgan maqsadga erishmoqdalar.

Zamonaviy dars berish metodlaridan "Interfaol" inglizcha "Interaktiv" "so'zidan olingen bo'lib, "O'zaro ta'sirlashish "ma'nosini bildiradi. Bunday usullarni darsda qo'llaganimizda o'quvchi guruh bilan birga faoliyat yuritadi, savollarni o'zaro kelishib, bahslashib muhokama qiladi. Bunda bir-birini qo'zqatib, faollashtirib boradigan o'quvchi va o'qituvchi faoliyati yetakchi o'rinni egallaydi.

Interfaol usulni qo'llaganda hammasidan ko'ra bellashuv, raqobat, tortishuv ruhiyati o'quvchi shaxsining intellektual faolligiga kuchli ta'sir qiladi. Bundan tashqari interfaol usullar ta'lim oluvchilarni atrofdagilar tomonidan bildirilgan har qanday fikrga o'zining shunga mos o'xshash yaqin yoki aksincha mutlaqo qarama-qarshi fikrni bildirishga da'vat etadi. Bunday usullar sirasiga quyidagi: "Binar",

(“Oxirgi so‘zini menga qoldiring”), ”Esse”(“Bayon”), ”Debat”, (“Munozara”), ”Muyorar”, (Insert” Ikki qismlik kundalik”, (Sinkveyn), ” Klaster” va hokazolarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Boshlang`ich sinflarda o’quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishda interfaol usullardan tashqari didaktik o’yinlardan ham o‘rinli foydalanish samarali natijalarni beradi.

Masalan, ”Blits”, ”Evrika”(“Topdim”), ”So‘z topish ”, ”Do‘stingizni toping va masalani yeching”, ”Bingo”, ”Zakovat”, ”Zinama-zina”, ”Kim zukko?” kabi didaktik o’yinlar shular jumlasidandir.

Biz boshlang`ich ta’lim jarayonida o’quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish imkonini beradigan bir necha interfaol usullar va ularning amaliy ko‘rinishi xususida to‘xtalamiz.

### **“Klaster”metodi.**

“Klaster”-inglizcha so’z bo’lib, (“Kluster”)bosh, bir shingil popuk ma’nosini anglatadi. Shuningdek, u ma’lum mavzu bo‘yicha erkin fikrlashning ochiq notekis shaklidir.

1-qadam: Yangi mavzuning asosiy aylana (ellips) shaklidagi chizma ichida yoziladi. Masalan, yangi (3-sinf, o‘qish darsi) “Bayramingiz muborak” mavzusi yuzasidan “Ona ”so‘zini daftarlarga quyidagicha chizish va yozish taklif etiladi. 2-qadam: O’quvchilarga ONA deganda xayollariga kelgan fikrlarini yozish taklif etiladi. (Bunda ularga rasm chizishiga ham ruxsat etiladi). “Kubik”usuli. Ushbu metoddan darsni mustahkamlash qismida foydalansa yaxshi natija beradi.

1-qadam: Mavzu o’tilgandan so’ng o’quvchilarda biror tushuncha shakllanadi. Ana shu tushunchani quyidagicha yozish taklif etiladi:

1. Tasvirlang.
2. Taqqoslang.
3. Birlashtiring.
4. Ishlating.
5. Tahlil qiling.
6. Foydali va zararli tomonlarini ko’rsating.

Tasvirlang: Ona-go'zal, shirinso'z, mehribon.

Taqqoslang: Onani quyosh, oy, dunyodagi eng go'zal va yaxshi narsalar bilan taqqoslash mumkin.

Birlashtiring: Onani bola bilan, uy bekasi bilan, o'qituvchi, shifokor, sotuvchi bilan birlashtirish mumkin.

Ishlating: Onaning qalbi –quyosh, mehri esa daryodir.

Tahlil qiling: Ona-aziz inson. Onalar bolalari uchun jonlarini ham fido qilishadi. U shunchalik mo'tabarki, buni "Jannat-onalar oyog'i ostidadir", "Ona bilan bola-gul bilan bola" hikmatlaridan ham bilish mumkin.

Yaxshi va yomon tomoni:

Onalar bolalarini yaxshi ko'radi, katta qiladi, kiyintiradi, injiqliklarini ko'taradi, ular shirinso'z, mehribon. "Zumrad va Qimmat"ertagidagi o'gay ona esa buning aksi.

### **"Sinkveyn" usuli.**

"Sinkveyn"-fransuzcha so'z bo'lib, "Besh"degan ma'noni bildiradi. Undan darsni mustahkamlash bosqichida foydalanishni taklif etish lozim.

"Sinkveyn" tuzishda quyidagi besh qatordan iborat shartga amal qilish kerak bo'ladi:

1-qator: Mavzu birgina so'z, ot orqali ifodalanadi.

2-qator: Mavzu ikki so'zdan iborat sifat bilan ifodalanadi.

3-qator: Mavzu doirasidagi xatti-harakat uchta so'z orqali ifodalanadi. Bu so'zlar fe'l yoki ravishdosh bo'lishi lozim.

4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan yaxlit fikr ifodalovchi gap yoziladi.

5-qator: Mavzuni takrorlaydigan, birgina sinonim so'z yoziladi.

1-qator: Mavzuning nomi –kitob

2-qator: 2ta sifat-rasmlı, qiziqarlı.

3-qator: 3ta fe'l-tarbiyalaydi, o'rgatadi, qiziqtiradi.

4-qator: 4ta so'zdan iborat gap "Kitob-xazina, bilim-boylik".

5-qator: Mavzuni sinonimi-darslik.

Chunonchi, interfaol usullar ta'lif jarayonida darslarni mazmuni, sifati boyishiga va samarali tashkil etilishiga, o'quvchilarining tashabbuskorligiga va yangiliklarni tezkor qabul qilishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ta'lif jarayonini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsga qiziqishini shakllantirish masalasiga shunchaki yondashib qolmaydi. Ularning ona tilini puxta o'zlashtirishi, yetarli ko'nikma va bilimga ega bo'lishi kelajakda savodxon bo'lishlariga zamin hozirlaydi. Bu borada o'qituvchidan ham ijodkorlik, ham chuqur bilimdonlik talab qilinadi.

Ayniqsa, ona tili fanida o'quvchilarga bilimlarni tayyor holda bayon qilish – zerikarli metod. Chunki bunday jarayonda o'qituvchi ishtirokchiga, tinglovchiga va faqat andazaga qarab harakat qiluvchiga aylanib qoladi.

Metodlarning ichida eng serunumi muammoli o'qitish tizimi bo'lib, u orqali ko'plab yutuqlarga erishayapmiz, desak mubolag'a bo'lmaydi. Deyarli barcha o'qituvchilarimiz kundalik dars jarayonida muammoli o'qitish metodining biror shakliga murojaat qiladi. Bu jarayon, o'z navbatida o'quvchida darsga bo'lgan muhabbat uyg'onishiga, qiziqish va intiluvchanlik xislatlarining yuzaga chiqishiga turki beradi. Bunday darslarni tashkil qilishning bir usuli-turli xildagi o'yinlardan foydalanishdir. Quyida 3-4-sinflarda qo'llash mumkin bo'lgan ana shunday o'yinlardan namunalar keltiramiz:

### **“Sirli kataklarni to'ldir”.**

O'quvchilarga kataklarni to'ldirib, tovushdosh so'zlar hosil qilish vazifasi topshiriladi. Masalan, toy so'zini soy so'zigacha davom ettirish talab etiladi. Namuna: toy, loy, moy, voy, oy, choy, yoy, soy.

**“So'z juftlarini davom ettir”.** O'quvchilar qal'a-qala, she'r-sher, sa'va-sava singari so'zlarning juftini topish va ularning manosini sharhlash so'raladi. Berilgan so'z juftlarini belgilangan miqdorga (10-15 ta so'z jufti) yetkazgan o'quvchi rag'batlantiriladi. Bu o'yin sinf o'quvchilarini guruhlarga ajratgan holda sinf taxtasida ham bajartirilishi mumkin.

Qatordagi har bir o'quvchi doskaga chiqib, bitta so'z juftini yozadi va bo'rni

ikkinchi o'quvchiga tutqazadi. O'yin shu tariqa davom etadi. "Ikkala bo'g'inda ham bir xil unli". Bu o'yinda birinchi bo'g'inida ham, ikkinchi bo'g'inida ham bir xil unli qo'llanadigan so'zlarni(tutun, burun, burgut, uzun, mushuk, uchun, tushum) topish va so'zlar ro'yxatini muayyan miqdorga yetkazish topshiriladi. "**Domino**" o'yinini quyidagicha o'tkazish mumkin: Bir o'quvchi so'z aytadi, so'z qaysi harf bilan tugasa, shu harf bilan boshlangan so'zni boshqa o'quvchi aytishi kerak. O'yin shu tarzda davom ettiriladi.

Namuna: ishla-adolatli-insofli-ilqli-inson—nargiz-zafar-rostgo'y-yilnomalar—anor-rubob.

**"Nazoratchi harf".** O'qituvchi belgilangan harf asosida o'quvchilarga so'z yozishni taklif etadi. Masalan, o'qituvchi "sh" harfining so'z boshida kelishiga namunalar yozing deb aytadi.

Ishni bajarish uchun 2-3 minut vaqt belgilanadi. O'quvchilar yozadilar: shodlik, shahar, shovqin, shalola, sharshara, sharafli, shar, sher...

"Keyingi bo'g'inni top". Berilgan bo'g' inlar ishtirokida so'z tuzish kerakligi tushuntiriladi. Qaysi o'quvchi ko'p so'z tuza olsa, a'lo baho bilan mukofotlanadi. Masalan, bo, jo, ni, lo, sa, mu, no, hu, ko... Bola, bobo, bozor, bodom... Jo'ja, jo'ra, jo'xori, jo'na...

"Talaffuzda adashmang". O'qituvchi o'quvchilarga "x" va "h" yoki "f", "p" tovushlari ishtirok etuvchi so'zlardan aytishni topshiradi.

O'quvchilar topshiriqni ikki bo'linib bajarishlari mumkin. Shunda kim so'zni noto'g'ri aysa, o'yindan chiqadi. Mavzu asosida so'z aytgan o'quvchi doskaga yozadi va imlosi bilan taqqoslaydi.

Belgilangan vaqtda eng ko'p to'g'ri so'z aytgan o'quvchiga rag'batlantiruvchi kartochkalar taqdim etiladi. Namuna: shoh-davlat boshlig'i; shox-novda, daraxtning shoxi.

O'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish ham Davlat ta'lif standartlari talablaridan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tilidan matn tuzishga o'rgatish bilan bir qator ta'limiy vositalarni ishga solishni talab etadi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limining samaradorligi

o'qitish metodini to'g'ri tanlash, ona tili fanining amaliy yo'nalishidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida ko'proq o'quvchini o'ylashga, fikrlashga undovchi, o'quv topshiriqlarini ishga solish, o'quvchilarda bilish-o'rghanish ehtiyojini yuzaga keltiradigan dars shakllaridan foydalanish singarilar bilan bog'liq.

O'quvchini ta'lim jarayonining sub'yektiga aylantirishda ta'limiy o'yinlar hal qiluvchi omillardan sanaladi.

Ona tilidan tashkil etiladigan didaktik o'yinlar o'quvchini izlanishga, ijodiy faoliyat ko'rsatishga, o'rghanilayotgan til hodisalarining mohiyatini aniqlab, hukm va xulosalar chiqarishga undaydi.

Ta'limiy o'yinlar har bir o'quvchiga o'zini namoyish etish, fikr-mulohazalarini himoya qilish, topshiriqni shavq-u zavq bilan bajarish imkoniyatini beradi.

Har bir shaxsda tarbiyalanishi zarur bo'lган ijobiliy sifatlar: tezkorlik, sezgirlik, topqirlilik, hushyorlik, qat'iyatlilik, bilimdonlik, mustaqillik, ijodkorlik kabilalar ko'pincha ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantiriladi.

Dars mashg'ulotlarida faqat bir xildagi o'yin-topshiriqlar bilan cheklanib qolmay, balki ko'proq ijodiylikka undovchi o'yinlarga e'tiborini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Zero, o'quvchilarni fikrlashga, o'ylashga, matn yaratishga o'rgatmasak, bugungi kun darsiga quyilgan muhim talab-shaxsnинг rivojlanishiga erishib bo'lmaydi

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol busullardan didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning drasdga nisbatan qiziqishlarini orttirishga, mustaqil fikrlahs faoliyatini rivojlantirishga, tafakkurini o'stirishga yordam beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.
2. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol usullar va pedagogik

texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008.

3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog— o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008.
4. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). T.: Iste'dod, 2010.